

ÔTKIR HOSHIMOV ASARLARIDA ONA SIYMOSINING GAVDALANISHI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi talabasi
Normirzayeva Ozoda Ikrom Qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ôtkir Hoshimov asarlarida Ona siymosining gavdalanishi kôrsatilib ôtilgan . Maqolada yozuvchi ona obrazini mahorat bilan tasvirlagan . Adib asarlarida Onaning yelkasiga tushgan qiyinchiliklar , kulfatlar tasvirlangan . Maqola ôquvchini sergaklikka chaqiradi.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье показан образ Матери в творчестве Уткира Хашимова. В статье писатель умело описал образ матери. В произведениях писателя описываются трудности и проблемы, выпавшие на плечи матери. Статья призывает читателя быть бдительными.*

Annotation: *This article shows the embodiment of Mother figure in the works of Otkir Hashimov. In the article, the writer skillfully described the image of mother. In the works of the writer, the difficulties and problems that fell on the mother's shoulders are described. The article calls the reader to be vigilant.*

Ôtkir Hoshimov -ôzbek xalqining taniqli yozuvchisi , dramaturg , jamiyat arbobidir .U ôz asarlari bilan ôzbek xalqining qalbidan joy egallagan . Uning asarlarini ôqigan inson gôyoki ôsha zamonga , aynan ôsha odamlar orasida tushib qolgandek his etadi ôzini . Uning qaysi asarini qôlimizga olmaylik , kôzimizda yosh bilan ôqiyimiz , ba'zida asar obrazlari qatori biz ham asar ichida yashaymiz , ular bilan qôshilib , tôsiqlardan ôtamiz .Xursand bôlsa xursand bôlamiz , xafa bôlsa bizning ham qalbimiz ğashlanadi .U asarlaridagi obrazlarini yaqqol hayotiy qilib olgan . Bundan tashqari adib "Ona "obrazini keng suratlarda beqiyos tasvirlagan . Ona - buyuk zot . O'tkir Hoshimovning asarlarida Ona obraziga berilgan ta'riflarni ôqib , gôyoki ôz onamiz kôz oldimizga keladi . Masalan, adib "Dunyoning ishlari " asariga va ona obraziga quyidagicha ta'rif beradi : " Bu qissa katta - kichik novellalardan iborat .Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz inson - onam siymosi bor . Bundagi odamlarning hammasini ôz kôzim bilan kôrganman . Faqat ba'zilarining ismi ôzgardi , xolos . Bu odamlarning qismati ham qaysidir ham jihati bilan onamga boğlangan .

Dunyodagi hamma onalar farzandiga bôlgan munosabat bobida bir -biriga juda ôxshaydi . Bas, shunday ekan , bu asar sizlarga bağishlanadi , aziz Onajonlar! " . Fikrlarimizning isbotini mana shu fikrlardan ham bilib olishimiz mumkin . Adib qissada ôz onasining xislatlarini aks ettiradi va onalarning ôz farzandiga mehr berishi bir xil bôlishini ta'kidlaydi , chindan ham onalar qaysi millatga tegishli bôlmasin ularning mehri ôz farzandlariga bir xildir . Misol uchun Ôtkir Hoshimovning " Dunyoning ishlari " qissasiga e'tiborimizni qaraylik , ushbu qissadagi har bir hikoyada

ona obrazi e'zozlangan. Shular jumlasidan " Gilam paypoq " hikoyasi ham . " Gilam paypoq " hikoyasi Ôtkir Hoshimovning boshqa hikoyalariğa ôxshab sodda ôquvchiga bir ôqiganda yetib boradigan tilda yozilgan . Onalar doim bolasining dardi bilan yuradiyu ôzining dardi esiga ham kelmaydi , asar qahramoni kôp kasal bôlganini va bir kuni isitmasi chiqib ketganini sôzlab beradi, onasi esa sovuqqa ôziga qaramay yengil kiyinib bolasini Hoji buvinikiga olib borganini ham sôzlab ôtadi . " ...Ertasiga u yotib qoldi . Uzoq yotdi . Dadam bir joydan qarğa otib keldi . Hoji buvi qôlidan kelgan cha dori -darmon qildi ... Keyin oyim tuzaldi . Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib , azob beradigan bôlib qoldi ...

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim ".- deydi asar qahramoni . Onalar doim bolam , bolam deb yurar ekanda . Mening ham hayotimda onamning ôrni beqiyos , onam tufayli shu darajaga erishdim , ya' ni ota -ona bizning yôlimizni yorituvchi yôlchiyulduzlarimizdir . Ular hayotliglarida qadrlariga yetishimiz kerak . Sizlarni bilmadim-u har gal institutdan uyga qaytganimda birinchi uydan onamni chaqiraman , yoki uyda kimdir bôlsa birinchi bôlib onamni qayerda ekanliklarini sôrayman . Bu ham onamizni bizga yaqin inson ekanligidan dalolat emasmi ?

Qissada onaning sabr toqatini aks ettiradigan hikoya bu- "Qanoat" hikoyasidir . Bu hikoyani ôqigan ôquvchini onaning sabr toqati lol qoldiradi . Asar qahramoni sôzlar ekan , dadasi bolaning aybi bilan onasiga shapaloq tushirganini onasining qovoği kôkarganini ma'lum qiladi va ğam chekib qôyadi , ertasi kuni qôshni ayol asar qahramonining onasiga erini yomonlaydi , keyin esa undan qovoği nega kôkarganini sôrashadi . Onasi bôlsa , ôtin tegib ketdi ,deb aytadi , bu gaplarni eshitgan asar qahramoni joyiga qotib qoladi : " Men turgan joyimda qotib qoldim . Onam yolğon gapirardi . Yolğon gapirardi-yu , negadir bu meng yoqar edi " -asar qahramoni shu tariqa sôzlay ketadi . Har bir hikoyada ona obrazi ôz xislatini namoyon etadi . Ona nafaqat ôz fazilatlarini bilan ajralib turadi , balki ôz bolalariga ôrnak bôlishi ham kerak . Asar qahramonining onasi ham bolalariga tarbiya berishda turli xil hikoya matallardan foydalangan . Misol sifatida "Haqqush" hikoyasini olaylik , bu hikoya boshqa hikoyalardan tarbiyaviy jihati bilan ajralib turadi . Ya'ni , bir zamonlar ikki aka yashar ekan . Ular juda noahil ekan . Akasining ismi Ilhaq , ukasining ismi esa Is'hoq ekan, ularning onasi ularni kôp bora yarashtirmiqchi bôlibdi, ammo uddalay olmabdi , oxiri adoyi tamom bôlgan ekan , Qodir Xudoning shunda qahri kelib ularni kôzini kôr qilib , qushga aylantirib qôygan ekan , shundan keyin aka -ukalar bir -birini kôrmasa soğinishini , bir-biriga kerak ekanini tushunib yetibdi , shundan keyin bir-birini qadriga yetibdi , bor qaraganda ushbu hikoyani falsafiy tomonlari ham bor , Ôshanda ona ôz bolalarini inoq bôlishi uchun ushbu hikoyatni keltirgandir . Asar qahramoni: " Bechora onam ! Ôsha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan môralagan qaldirg'och bolasidek kôrpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir -biri bilan inoq bôlishini shunchalik xohlaganmiding !" - deya xôrsinadi .

" Ona " obrazi nafaqat "Dunyoning ishlari " asarida balki , "Ikki eshik orasi " asarida ham ôzining xislatlari bilan ajralib turadi . "Ikki eshik orasi" asarini ôqigan ôquvchi ayolning matonatiga qoyil qolmasdan iloji yo'q . Asarda ona obrazini kôklarga kôtaradigan ham , onalik nomiga dođ tushuradigan ham obrazlar uchraydi . Ona obrazini kôklarga kôtaradigan obraz bu -"Qora amma" obrazidir . Asarda u ôđlidan xat olgani va u xat uning boshiga dard bôlib yođilgani uning ôz tilidan qôshiq bôlib aytiladi Dukur-dukur ot keldi.

Ot boshida xat keldi. Xatini o'qib ko'rsam,
Voy-voy bilan dod keldi.

Bu she'rni ôqigan ôquvchi nima bôlganini tez anglab oladi . Bu she'rda Qora ammaning dardi ôz aksini topgan , u gap sôzlarga ishonmaydi , bolasini jigarbandini ôlgunicha kutadi , bechora ona bolasining sođinchida adoyi tamom bôladi , ammo har nafasida ôđlining tirikligiga ishonadi .Daxshatli urush bu borada onalarni ham ayab ôtirmadi . Endi ikkinchi obraz haqida gaplashsak -bu Ra'no obrazidir . Bu obraz ôz bolasini tashlab boshqa bir inson bilan qochib ketadi . Bechora eri esa chaqaloq bilan yolđiz qolib ketadi , keyinchalik Robiya ismli qizga uning otasi uylanadi, Robiya bolani ôz bolasidek tarbiyalaydi . "Tuqqan ona emas , Boqqan ona"- deb bekorga aytishmagan .Robiya bolaga ôz onasidek mehr berdi oq yuvib taradi . Qarang qanchalik bir -biriga qarama -qarshi obrazlar . Menimcha Qora ammaning butun umri sođinchda ôtishida ham , bir gôdakni onasiz qolib ketishida ham hammasiga urush sababchi emasmi ?!. Urush bôlmaganda Qora amma ham bolasining diydoriga tôygan bôlar ediku , balki Ra'no ham eriga xiyonat qilmagan bolasini yetim qilmagan bôlar ediku .

Xulosa qilib aytadigan bôlsak, Ôtkir Hoshimovning kôplab asarlarida Ona siymosi madh etilgan , uning qaysi asarini olmaylik , ayol xislatlarini uluđlanishini kôramiz , biz onamizni asrashimiz , vaqtida qadriga yetishimiz , asrab avaylashimiz zarur .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1) Dunyoning ishlari :qissa / Ô. Hoshimov.-Toshkent : "Qaldirg'och nashriyoti" , 2018.- 208 b.

2)Ôtkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi "nomli asaridagi urush voqealari va undagi ayanchli taqdirlar : ilmiy maqola /Musayeva Diyora Xolmamatovna

3. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).

4. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).
5. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(4), 4-8.
6. А р и п о в, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 68-75.
7. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.
8. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
9. М а м а д ж о н о в, Р. (2023). “VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O ‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TANLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).
10. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
11. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 17, 31-33.
12. М а м а ж о н о в, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Интернаука*, (21-3), 74-75.
13. М а м а ж о н о в, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Интернаука*, (22-3), 64-66.